



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2022

5/2022



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-4875
9 772181 067004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

**MUNDARLA**

EXACT AND NATURAL SCIENCES		
Khujayev L.Kh.	Nonlinear inverse problems for the system of poroelasticity equations	3
Raxmatova N.J.	Analysis of the 1D fractional diffusion equation with initial-boundary problem	16
Hasanov I. G.	Structural changes in agriculture: problems of modernization and ways of solvation	22
LINGUISTICS		
Юлдашева Д.Н.	Ўзбек тилининг софлигини сақлашга масъулмиз	27
Irgasheva F.B.	Lingvokulturologiyaning tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari	31
Norova M.F.	Phonopragmatic characteristics of apocope	35
Ruzieva M. Kh.	Clinical features of the human linguistic system	38
Sirojova Z.N.	Ingliz tilidagi qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlar sinkretizmining funksional tadqiqi	43
Subxonova M.O.	Lingvomadaniy birliklarning do'stlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi	48
Sulaymanova M.Sh.	The role of national values in teaching the native language	52
Xamdamova G.X.	Maqollarning nominativ-semantik xususiyatlari	57
Xojiyeva M.Y.	Shaxs semali leksemalar valentligi va so'z birikmasi	61
Yokubova Sh.Y.	Poetik nutqda metaforik birikmalar	65
Зиёдуллаев А.Р.	Эпонимларнинг мавзуй таснифи	70
Наширова Ш.Б.	Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча лугатлар учун кўп маъноли сўزلарни танлаш мезонлари	75
Рўзиев Я.Б.	Ўзбек тилида биринчи тур ўзлаштирмалик ва гап	80
Salixova N.N.	Ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan undovlarning ma'no turlari	86
Safarova M.Z.	Etnonimiyaning o'rganilishi	90
Tўраева Д.М.	Пунктуацияда меъер ва янгича аъёнларнинг пайдо бўлиши	98



LINGUISTICS

UO'K: 81'44

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'LLANILADIGAN UNDOVLARNING MA'NO TURLARI

Salixova Nodira Nurullayevna,

Buxoro davlat universiteti
tarjimonshunoslik va lingvodidaktika kafedrasi
katta o'qituvchisi
n.n.salixova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan undovlar, ularning ma'no xususiyatiga ko'ra turlari keltirilgan. Shuningdek ingliz va o'zbek tili badiiy asarlarida uchraydigan undovlar tahlil qilingan. Ma'lumki, alohida so'zlarning ma'nolarini batafsil ochib bermasdan hech qanday semantik tahlil, shu jumladan jumalarni tahlil qilish mumkin emas va bu, o'z navbatida, ekstralingvistik haqiqatga murojaat qilmasdan mumkin emas, chunki bu ekstralingvistik voqelikni tahlil qilishdir. Binobarin, hech bir tadqiqotchi til faqat nutqda va nutq orqali mavjud bo'lib, borliqning boshqa shakllarini bilmaligini e'tibordan chetda qoldira olmaydi. Binobarin, tilning leksikasi yoki lug'ati uning bir qismi sifatida, son-sanoqsiz real nutqiy asarlardan ajratib olinishi kerak.

Kalit so'zlar: undov, his-hayajon, buyruq-xitob, nutq, talaffuz.

Abstract: The article presents interjections used in English and Uzbek, their types according to their meaning. Also, interjections found in English and Uzbek language works of art are analyzed. It is known that no semantic analysis, including the analysis of sentences, is possible without revealing the meanings of individual words in detail, and this, in turn, is impossible without reference to extralinguistic reality, because this is an analysis of extralinguistic reality. Therefore, no researcher can ignore the fact that language exists only in speech and through speech, and does not know other forms of existence. Therefore, the lexicon or dictionary of a language must be distinguished from the countless real speech works as part of it.

Keywords: interjection, emotion, command-call, speech, pronunciation.

Аннотация: В статье рассматриваются междометия, используемые в английском и узбекском языках, их виды по смыслу. Также анализируются междометия, встречающиеся в английских и узбекских литературных произведениях. Известно, что никакой семантический анализ, в том числе и анализ предложений, невозможен без детального раскрытия значений отдельных слов, а это, в свою очередь, невозможно без обращения к внеязыковой действительности, ибо это есть анализ внеязыковой действительности. Поэтому ни один исследователь не может игнорировать тот факт, что язык существует только в речи и через речь и не знает других форм существования. Поэтому лексику или словарь языка необходимо отличать от бесчисленных реальных речевых произведений, входящих в его состав.

Ключевые слова: междометие, эмоция, восклицание, речь, произношение.

Kirish. Ma'lum bir til vakilining nutqi nimasi bilan ajralishi mumkin, nutqda grammatikaning to'g'ri qo'llanishi bilan bo'lsa, unda til vakillari o'rganuvchilardan ko'ra ko'proq xatolikka yo'l qo'yadilar, yoki boy leksikasi bilan deyidigan bo'lsak, bu holatda oliy ta'lim muassasasida til o'rganayotgan kishining so'z boyligi oliy ma'lumotga ega bo'lmagan til vakilidan ko'proq bo'lishi mumkin. Ona tili vakilining nutqiga xos bo'lgan narsa bu – undovlardir. Tilning ichki boyligini va salmog'ini ortishiga xizmat qiladigan vositalardan biri ham aynan shu undovlardir.

Undov so'zlar nutqning emotsionalligini ko'rsatib, talaffuzda ham osonroqdir. Nutqdan avval bu so'zlarni alohida lug'at qatoridan topib qo'llash shart emas, chunki ular nutqda o'z-o'zidan shakllanadi, ya'ni so'zlovchining hayrat, taajjub, qo'rquv, qiziqish kabi his-tuyg'ularini namoyon etishda yo'l-yo'lakay yuzaga keladi, ya'ni vaziyat shu taqozo qiladiki, inson o'zi xoxlamasdan holatini tilda aks ettiradi. Biz kundalik nutqimizda o'zimiz bilmagan holda undovlardan unumli foydalanamiz va bu orqali suhbatdoshimizga o'zimizning munosabatimizni aniq ko'rsata olamiz.

Tilshunos olim Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) o'quv qo'llanmasida undov so'zlar haqida quyidagicha ma'lumotlarni aytib o'tgan: "Undov so'zlar kishilarning his-hayajonini, buyruq-xitob, haydash, chaqirish ma'nolarini ifodalaydi. Undov so'zlar leksik ma'no ifodalay olmasligi, kelishik, egalik, son affikslarini olmasligi jihatidan mustaqil so'zlardan farq qiladi. Shuningdek,

← 2022 5-сон финиш.pdf

LINGUISTICS

nutqda boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirisha olmasligi, gapning biror bo'lagi vazifasini bajara olmasligi ham bu so'z turkumining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ular faqat otlashgandagina gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin.

Asosiy qism. Undovlar ingliz tilida ham o'zbek tilida kelishikda, sonda, zamonda o'zgarmaydi, shuningdek, biror gap bo'lagi vazifasida kelmasa-da, qisqa so'z yordamida so'zlovchining his-tuyg'usini, bo'layotgan voqea-hodisaga nisbatan fikri va munosabatini ifodalashda aynan undovlardan foydalaniladi.

Ingliz va o'zbek tillarida undovlarning salmog'i ancha katta bo'lib, birinchi navbada ular so'zlovchining his-hayajonini namoyon etadi, misol uchun

"Oh, you girls are wonderful!"

Bu misolda so'zlovchining taajjubda ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Ingliz tilida ko'p uchraydigan undovlar va ularning ma'no ifodasi:

Aah – qo'rquv ifodasi,

Awesome – hayratlanish ifodasi,

Cool – ajoyib,

Aww – yoqimli hiror narsani ko'rgandagi ifoda,

Eww – jirkanish,

Hmph – e'tiborsizlik,

Eh – ikkilanish ifodasi,

Bingo – hiror narsaning to'g'ri ekanligini tasdiqlash,

Ooh-la-la – hayrat yoki taajjub ifodasini bo'yrtirish,

Oh – iqrortik ifodasi,

Ouch – og'riq nolasi ifodasi,

Oops – xatoni anglaganlik ifodasi,

Hooray – urey,

Shh – tinchlikni saqlashga undash

Misol uchun: *Hey! What are you doing here?*

Hoy! Bu yerda nima qilyapsan?

Ahh! I didn't see you standing there.

Voy! U yerda turganingni poyqamapman.

Sintaktik nuqtai nazardan undovlar mustaqil so'z-gap vazifasida kelishi mumkin. Ularning o'zi so'z-gap sifatida yetarli bo'lishi yoki bo'lmasa asosiy gap bilan moslashishi mumkin. Agar undovlar asosiy gap bilan moslashsa, unda ular gap oxirida yoki boshida ham kelishi mumkin.

Undovlar alohida qo'llanganda boshqa gaplar bilan o'z aloqasini yo'qotmaydi. Mustaqil undovlar, asosan undov gaplarda ko'proq qo'llanadi. Ko'plab undovlar – shunchaki tovushlar bo'lib, ular gap bo'lagi bo'la olmaydi. Bunday undovlar, odatda, og'zaki nutqda uchrab, ularning yordamida nutq pauzalari to'ldiriladi, aytilayotgan fikrga emotsional bo'yoqdorlikni namoyon qiladi yoki bo'lmasa tinglovchi e'tiborini jalb qiladi. Rasmiy hujjatlar va ilmiy matnlarni undovlardan xoli qilgan ma'qul hisoblanadi.

Undovlar ma'no xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi, hular:

- His-hayajon undovlari

- Buyruq-xitob undovlari

His-hayajon undovlari quyidagi ma'nolarga ega:

1. Shodlik, xursandchilik, masalan O-o! buni chayirligini qara! O'zbeklar kuchli bo'ladi deb eshitganman

2. Xafalik, charchoq, og'ir ruhiy qiyinchilik, masalan: *E-e*, ular bilan endi ishim yo'q, har kimning dori-sirtmog'i alohida, har kim o'z qilmishiga o'zi odil Poshsho oldida javobini beraveradi.

3. Ta'kid, taajjub, masalan: Mas'ul ensasasini qotirib, *Voy-bo'*, yaxshiyam o'zingiz tug'magansiz, agar bolangiz bo'lsa, tilingizni tagiga solib yurarkansiz-da „ deb piching qildi.

4. Urf-odat, masalan: Bir kuni yuzlari chekich urilganday cho'tir kishi "*hormanglar!*" deb kirib kelib, bo'sag'adagi ho'l lattaga oyog'ini arta-arta hol-ahvol so'ragani, onam sichqonlardan nolib, margimush zarurligini aytgani va men birdan yig'lab yuborganim, "Kerakmas, ularga tegmanglar, ular meni do'stlarim!" deb g'ishava qilganim esimda.

Asosan hayvon, yoki qushlarni chaqirish va haydash, ularni harakatlantirish yoki harakatni cheklashda ishlatilib, ulardan ayrimlari insonga nisbatan ham qo'llaniladi kishi nomlari o'rnida kelib, murojaatni ifodalovchi undovlar buyruq-xitob undovlari hisoblanadi.

O'v, puling menga kerakmas. Aytyapman-ku, tumanga, tumanga! U' qo'li bilan osmonga ishora qildi.

Ey atli ushshoq! Ishq dardida sayr etib, dunyoviy saboqlar Sabil qolmasin ta'gin, -dedi yolg'on po'pisa bilan.



LINGUISTICS

O'v, adashding, men xalqimda sodiq odamman, bor, toshingni ter!

Undovlar gapning hech bir bo'lagi bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan va gap bo'lagi vazifasida ham kela olmaydigan o'zgarmas so'z turkumidir.

Undovlar zamonaviy ingliz tilida eng qiziqarli va o'zgacha nutq birligi hisoblanadi. Kundan-kunga nutqda turli yangicha undovlar paydo bo'lib, ularning ayrimlari tezda unutilmoqda, yoki bo'lmasa, nutqni yanada ifodalay qilib ma'lum bir til doirasini boyitadi va bo'yoqdorligini oshiradi. Ingliz tilidagi undovlarni yaxshiroq anglash uchun turli yumoristik va badiiy adabiyotlarni o'qish, turli teleko'rsatuvlarni tomosha qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. U yoki bu so'zning ma'nosini aytilgan kontekstning umumiy ma'nosini anglash mumkin, shuningdek, nutq ishtirokchisining turli mimika va imo-ishoralari ham ko'makchi bo'la oladi. Fe'llar, otlar va olmoshlar undovlar vazifasini bajarishi mumkin, chunki ular gapning emotsionalligini kuchaytirishga yordam beradi.

Ma'lumki, alohida so'zlarning ma'nolarini batafsil ochib bermasdan hech qanday semantik tahlil, shu jumladan jummalarni tahlil qilish mumkin emas va bu, o'z navbatida, ekstralingvistik haqiqatga murojaat qilmasdan mumkin emas, chunki bu ekstralingvistik voqealarni tahlil qilishdir. Binobarin, hech bir tadqiqotchi til faqat nutqda va nutq orqali mavjud bo'lib, birligining boshqa shakllarini bilmastigini e'tibordan chetda qoldira olmaydi. Binobarin, tilning leksikasi yoki lug'ati uning bir qismi sifatida, son-sanoqisiz real nutqiy asarlardan ajratib olinishi kerak.

Xuddi shu narsa undovlarning ma'nolariga ham tegishli: ularning ma'nolari nutqda, kontekstda amalga oshiriladi, o'rnatiladi, bir-biridan ajratiladi va, qoida tariqasida, hal qiluvchi rol o'ynaydigan nutq aloqasining o'ziga xos sharoitlarida bir ma'noda namoyon bo'ladi.

Undovlar faqat paradigmatic munosabatlar bilan tavsiflanadi. Undovlarga nisbatan paradigmatica deganda, biz "ma'lum darajadagi birliklar o'zlarining" ma'nosini bir xil darajadagi boshqa birliklar bilan solishtirish asosida" olishiga asoslanib, kesimlarning o'zaro munosabatini tushunamiz. Shu bilan birga, kesim ba'zi hollarda boshqa so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kiradi. Bunda aytamizki, bu yerda endi kesim emas, balki lug'aviy ma'no, ba'zan esa bu shakllarning grammatik shakllari va grammatik ma'nolarini qabul qiluvchi ahamiyatli so'z. Buni quyidagi misolda ko'rish oson:

When Danny stripped, there were ohs and ahs of delight.

Bu misolda oh va ah so'zlari endi alohida gap bo'lagi emas, chunki ular hayrat tuyg'usini ifodalamaydi, balki nomlaydi. Oh va ahs undovlari gapdagi boshqa so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kirib, gap a'zosiga aylanib, nominativ vazifa shaklida leksik ma'no va ularning ko'plik shakllarining grammatik ma'nosiga ega bo'lgan. Ular otga aylandi.

Bundan tashqari, har bir birlik bir xil darajadagi boshqa birliklar bilan mumkin bo'lgan kombinatsiyalarning o'ziga xos diapazoni yoki boshqacha qilib aytganda, muvofiqlik bo'yicha o'zining pozitsion cheklovlariga ega bo'lganligi sababli, bu cheklovlar ushbu birlikning xarakteristikasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, undovning umuman bo'lmagan kesimlarga mosligi yo'q, shuning uchun unga taqsimlash tushunchasini qo'llash mumkin emas, deymiz. Shu bilan birga, funksional farqi neytrallashtirishga olib keladigan shunday pozitsiyalar mavjud: paradigma a'zolaridan birini ajratib turadigan xususiyat ahamiyatli bo'lishni inkor etadi. Natijada, mos keladigan muxolifat neytrallanadi.

Masalan, undovga aylangan ahamiyatli so'zda uring leksik va grammatik ma'nolari neytrallanadi. Keling, quyidagi misolni olaylik:

The Flower Girl: I am come to have lessons. I am.

And to pay for them toot make no mistake.

Higgins (stupid): Well!

Yuqoridagi gapda undov so'z faqatgina "yuxshi" qo'shimchasiga xos bo'lgan leksik ma'noga ega emas. U leksik va grammatik ma'nolarining neytrallanishi tufayli hayratning emotsional undovi vazifasini bajaradi.

Neytrallashtirish kontseptsiyasi undovlarning shakllanish hodisalariga yangicha yondashish imkonini beradi, ya'ni, lingvistik adabiyotda hanuzgacha bunday hodisalarga turli xil talqinlar keltiriladi.

Undovlarning kesimsiz qo'shma gaplar bilan bog'lanishi ikkinchisining kesim vazifasini o'zlashtirishi va ularning kesimga aylanishidan iborat. Masalan, ingliz tilida: Fiddlesticks! O'zbek tilida: Xudo! Rahmatli! Xo'sh, nega! Nima! va hokazo. Undovlar turkumi doimiy ravishda bunday hosilalar bilan yangilanadi va shakllanadi. Ushbu to'ldirish lug'aviy ma'nosini yo'qotgan va faqat hissiy ma'noni ifodalovchi muhim so'zlar va iboralar tufayli yuzaga keladi. Bunday so'z va iboralarning undovga o'tishi leksema yoki leksema birikmasining denominallashuvi, grammatik shakl va grammatik ma'nolarining yo'qolishi bilan birga kechadi.

Bunday jarayonlar natijasida gap bo'lagi sifatida undovlar juda noaniq chegaralarga ega bo'lib, nutqning boshqa qismlarida - muntazam yoki vaqti-vaqti bilan - qat'iy cheklovlarga ega emas. Tahlil natijasida shuni taxmin qilishimiz mumkinki, gapning bu qismining asosiy o'zagi sifatida haqiqatda undovlar

LINGUISTICS

va ko'p sonli so'zlar mavjud bo'lib, ular aslida undov bo'lmagan, faqat shunday vazifasini bajaradi, bu so'zlar undovning periferiya qismini tashkil qiladi.

Tuzilishi bo'yicha undovlar sodda va qo'shma gaplarga bo'linadi. Birlamchi bo'laklar har doim oddiy, ular nutqning boshqa qismlari orasida o'xshash va omonimlarga ega emas.

Undovlarning hosilalari oddiy va qo'shma gaplarga bo'linadi.

Undovlar nominativ funksiyadan mahrum bo'lishiga qaramay, ular tilda mustahkam o'rnatilgan ma'noga ega bo'lib, odamlarning ma'lum bir lingvistik jamoasi uchun me'yordir.

Xulosa. An'anaga ko'ra, so'zlar avloddan-avlodga o'tadi va so'zlovchi ularni boshqa odamlar qanday talaffuz qilsa, shunday talaffuz qilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, undovlar ma'lum bir tilning fonologik vositalari asosida mavjud. Shu munosabat bilan, undovlarning avloddan-avlodga o'tish shartlaridan biri og'zaki muloqot jarayonida odamlarning o'zaro ta'siridir. Moddiy qobiq bilan avloddan-avlodga o'tib, ularning ma'nosini saqlab qolishdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkin, ko'pchilik tilshunolar undovlarni semantikasiga ko'ra tasniflash zarurligi haqida bir fikrda. Biroq tavsiya etilgan semantik tasniflar bir xillikdan uzoqdir. Kesimlarning semantik tasnifini ishlab chiqish orqali biz kesimlarning tabiati va mohiyatini yanada tahlil qilish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Usmonov S. *Undovlar*, T., 1953;
2. Wierzbicka, Anna (September 1992). "The semantics of interjection". *Journal of Pragmatics*, 18 (2-3): 159-192.
3. Bloomfield, Leonard (1933). *Language*. New York: Holt.
4. Iqbol Mirzo. *Bonu. Sharq*. 2018.
5. Nurullayevna, S. N. - (2021). *The techniques of explicit grammar instruction*. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 281-284.
6. Salixova, N. N. (2019). *Peculiar features of teaching reading*. *Theoretical & Applied Science*, (11), 705-708.
7. Salikhova Nodira Nurullayevna. (2020). *The key of effective communication is pronunciation*. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 1(4), 5-7.